

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Sultanov X.E.**

**TASVIRIY SAN‘AT KOMPOZITSIYASI  
o‘quv qo‘llanma**



**7011201 – Tasviriy san‘at va amaliy bezak san‘ati mutaxassisligi  
bo‘yicha magistraturaga ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan**

**TOSHKENT-2023**

## **Annotatsiya**

“Tasviriy san’at kompozitsiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma pedagogika oliy ta’lim muassasalarining 70111201 – Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati mutaxassisligi bo‘yicha magistraturaga ta’lim yo‘nalishi 1 - kurs talabalari uchun tuzilgan o‘quv dasturi asosida yozilgan. Ushbu qo‘llanma bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining tasviriy san’at fanlarining asosi bo‘lgan kompozitsiya qonun-qoidalari haqida chuqur bilim berish hamda kasbiy malakalarini shakllantirish maqsadida yaratilgan.

O‘quv vazifalar sifatida tavsiya etilayotgan ko‘rsatmalardan foydalanish, ushbu fan bo‘yicha qo‘yiladigan talablar batafsil ifodalangan o‘quv dasturini sinchiklab o‘rganish bilan birga olib borilganda nisbatan yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa, bu rangtasvir kompozitsiyasi ishlashni o‘rganish bo‘yicha mustaqil vazifalar bajarishda juda qo‘l keladi. O‘quv qo‘llanmada rangtasvirga tegishli Yevropalik mualliflar kitoblaridagi materiallardan unumli foydalanilgan hamda xorijiy rangtasvir ustalari tajribasi bo‘yicha vazifalar kiritilgan.

## **Аннотация**

Учебное пособие "Композиция изобразительного искусства" написано на основе образовательной программы для студентов 1 курса специальности 70111201 - изобразительное и декоративно-прикладное искусство магистратуры педагогических вузов. Данное пособие создано для углубленного изучения правил композиции, являющейся основой наук об изобразительном искусстве, и формированию профессиональных навыков у будущих учителей изобразительного искусства.

Использование рекомендуемых методических указаний в качестве учебных заданий, наряду с тщательным изучением учебного плана, где подробно изложены требования к предмету, позволяет добиться относительно неплохих результатов. Изучение композиции по живописи особенно полезна для самостоятельного выполнения заданий. В учебном пособии эффективно использованы материалы из книг европейских авторов, связанных с живописью, включены задания, основанные на опыте зарубежных живописцев.

## **Annotation**

The textbook "Composition of fine arts" was written on the basis of the educational program for 1st year students of the specialty 70111201 - fine and arts and crafts of the magistracy of pedagogical universities. This manual was created for an in-depth study of the rules of composition, which is the basis of the sciences of fine arts, and the formation of professional skills for future teachers of fine arts.

The use of the recommended guidelines as study tasks, along with a thorough study of the curriculum, which details the requirements for the subject, allows you to achieve relatively good results. The study of composition by painting is especially useful for self-completion of assignments. The textbook effectively uses materials from the books of European authors related to painting, includes assignments based on the experience of foreign painters.

## **МУҲДАРИЖА**

<b>Kompozitsiya fanining qisqa rivojlanish tarixi .....</b>	<b>6</b>
<b>Rafael Santi ijodi .....</b>	<b>11</b>
<b>Paolo Veroneze ijodi.....</b>	<b>13</b>
<b>A. Dyurerning kompozitsiya fani rivojidagi o‘rni .....</b>	<b>18</b>
<b>SHARQ MINIATYURA ASARLARI AN‘ANALARINI QO‘LLAGAN TARZDA KOMPOZITSIYA YARATISH.....</b>	<b>25</b>
<b>Sharq musavvirlarining jahon tasviriy san‘atiga ta’siri K. Bexzod ijodi.....</b>	<b>25</b>
<b>O‘zbekistonda realistik rangtasvir rivojida A.N. Volkovning o‘rni .....</b>	<b>36</b>
<b>SHARQ MINIATYURA ASARLARI AN‘ANALARINI QO‘LLAGAN TARZDA KOMPOZITSIYA YARATISH.....</b>	<b>41</b>
<b>Musavvir Chingiz Axmarov .....</b>	<b>41</b>
<b>O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN‘ATIDA DAVR IFODASI .....</b>	<b>47</b>
<b>B.Jalolov ijodi .....</b>	<b>47</b>
<b>BIR YOKI BIR NECHA KISHILAR ISHTIROK ETGAN MAVZULI KOMPOZITSIYA ISHLASH .....</b>	<b>53</b>
<b>ILOVALAR .....</b>	<b>78</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>86</b>

## KIRISH

Bugungi yuksak texnologiyalar asrida yoshlarning innovatsion tafakkuri, bozor iqtisodi talabalariga mos ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning axloqiy tarbiyasi, ma'naviy immunitetini kuchaytirish, dunyoqarashi, inson ongining oliy ko'rinishi bo'lgan intellektual-ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish muammosi kun sayin dolzarblashib bormoqda. Ta'limni rivojlantirmasdan, oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, jamiyat va inson taqdiri bilan bog'liq dolzarb g'oyalarni amalga oshirish mumkin emas. Mamlakatimizda amaliyotga joriy etilayotgan ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud<sup>1</sup>. Bugungi innovatsiyalar asrida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohaları taraqqiyotida tasviriy san'at ta'limining ham alohida o'rni bor. Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ulardagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga nisbatan g'ururi va dunyoqarashini shakllantirish, ulardagi mehnatsevarlik hamda axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda tasviriy san'at ta'limining ahamiyati juda katta. Insonning estetik didi, ijodiy tasavvuri, badiiy tafakkuri va hissiyotlarini tarbiyalashda tasviriy san'at fanining imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Globallashtirish va axborot manbaalarining ta'siri kuchaygan davrda uzluksiz ta'lim tizimida ushbu fanning ahamiyati va yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi zarurati yanada ortmoqda. Tasviriy san'at ta'limiga klaster yondashuvini tatbiq etish orqali talabalaridagi ijodiy va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga faollashtirish, ulardagi tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish<sup>2</sup> bugungi kun uchun o'ta muhim vazifa sanaladi. Mana shunday innovatsion yondashuvga integratsiya va uzviylikni ta'minlash orqali talabalar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish<sup>3</sup> vositasida ta'limda, jumladan, tasviriy san'at ta'limida yuqori sifat va samaradorlikka erishish omili sifatida qarash mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma pedagogika oliy ta'lim muassasalarining 70111201 - Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga ta'lim yo'nalishi 1 - kurs talabari uchun tuzilgan o'quv dasturi asosida yozilgan bo'lib, undan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabari ham foydalanishlari mumkin. Unda kompozitsiya fanining qisqa rivojlanish tarixi, sharq musavvirlarining jahon tasviriy san'atiga ta'siri, O'zbekistonda realistlik rangtasvir san'atining rivojlanishi, Sharq miniatyura asarlari va milliy an'analarini qo'llagan

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгилашни сари. – Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 8-октябрдаги ПФ-5847-сон Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепсияси // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son.

<sup>3</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son

tarzda kompozitsiya yaratish usullari, xorijiy va milliy rangtasvir asarlarini badiiy tahlil qilish yo'llari yoritib berilgan. Undan tashqari, Sharq miniatyura asarlari yaratish an'alarini qo'llagan holda bir yoki bir necha kishilar ishtirok etgan mavzuli kompozitsiya ishlash hamda natyurmort kompozitsiyasini amalda bajarish haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Qo'llanma bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining tasviriy san'at fanlarining asosi bo'lgan kompozitsiya qonun-qoidalari haqida chuqur bilim berish hamda kasbiy malakalarini shakllantirish maqsadida yaratilgan. Shuningdek, qo'llanmaning vazifasi talabalarini tasviriy san'at kompozitsiyasi yaratish texnikasining nazariy va metodik asoslari bilan tanishtirishdan iborat. Ma'lumki, har qanday fanning nazariy tomonlarini o'zlashtirish uning o'ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o'rganishni talab qiladi.

Ushbu kitob tasviriy san'atda kompozitsiya yaratish jarayonining nazariy jihatlarini o'rganish, san'at asarlarini kompozitsion tahlil qilish, amalda rangtasvir kompozitsiyalari bajarishda uchraydigan ilk qiyinchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi. Rangtasvir mashg'ulotlari orqali yosh rassom pedagoglar atrof-muhit, borliqni kuzatish, idrok etish, tahlil qilib to'g'ri tasvirlashni o'rganishadi. Qo'llanmaning ilova qismida chet el va milliy rassomlik maktablariga tegishli taniqli rassomlar asarlari hamda ChDPU "Tasviriy san'at" yo'nalishi talabalari va ijodkor o'qituvchilar tomonidan bajarilgan rangtasvir kompozitsiyasi namunalaridan iborat ijodiy ishlar ko'rgazmali qurol sifatida kiritilgan. keltirilgan.

Shu paytgacha xorijiy adabiyotlarni o'rganib, uni milliy tasviriy san'at an'analari bilan uyg'unlashtirib o'zbek tilida Pedagogika oliy o'quv yurtlari 70111201 – Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga ta'lim yo'nalishi talabalari uchun yozilgan "Tasviriy san'at kompozitsiyasi" qo'llanmalari mavjud emas edi. Ushbu qo'llanma esa xorijiy tajribalarga katta e'tibor qaratilib, chet el adabiyotlaridan keng foydalanilgan holda yaratildi. Bu bo'lajak rassom pedagog kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan tasviriy san'at fanlarining asosi bo'lgan kompozitsiya qonun-qoidalari haqidagi bilimlarni o'zlashtirish hamda kasbiy malakalarini shakllantirishda zarur metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, ijodiy va kasbiy mahorat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, tinimsiz o'z ustida ishlashi, doimiy amaliy mashqlar bajarishi, turli ashyolarda va rangda har xil tajribalar o'tkazib turishi jarayonida o'sib boradi. kompozitsiyasini o'rganmoqchi bo'lsa, u. Amaliy mashqlar maqsadga erishishning eng to'g'ri yo'li bo'lsa, kitob esa undagi harakatlarni boshqaruvchi yo'l ko'rsatuvchi mayoq hisoblanadi.